

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



O'quv va tarbiya ishlar bo'yicha prorektor  
S. Nozimamatov

**BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING  
PEDAGOGIK AMALIYOT  
DASTURI**

**1-kurs:**  
Bilim sohasi: 100 000 – Ta'lim  
Ta'lim sohasi: 110000 – Ta'lim  
Ta'lim yo'nalishi: 60111400 – O'zbek tili va adabiyoti

**2-3-4-kurslar:**  
Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar  
Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika  
Ta'lim yo'nalishi: 5 111 200 – O'zbek tili va adabiyoti

Amaliyot davomiyligi: 1-kurs – 3 hafta  
2-3-kurs – 4 hafta  
4-kurs – 15 hafta

Pedagogik amaliyotning ishchi o'quv dasturi O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti Kengashining 2021-yil "28" 08 dagi 1 -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchilar:** Roza Niyozmetova – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasini professori, pedagogika fanlari doktori

**Tursunoy Yusupova** – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU Lingvodicaktika kafedrasini dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

**Klaraxon Mavlonova** – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU Lingvodicaktika kafedrasini katta o'qituvchisi, ped.f.d.(PhD)

**Taqrizchilar:**

**Saodat Kambarova** Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasini katta o'qituvchisi, ped.f.d.(PhD)

**Marhabo Umurzoqova** Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti dekani  L. Raupova

O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri  M. Abdullayeva

Lingvodicaktika kafedrasini mudiri v.b.  Sh. Abduraimov

**1. Pedagogik amaliyotning o'tkazilishi bo'yicha ustubiy ko'rsatmalar**

Respublikamizda "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash", shu bilan birgalikda umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda oliy ta'lim tizimida faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish borasida keng ko'lami ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston jahon tajribalarini hisobga olgan holda o'z taraqqiyot yo'lini o'ziga belgilab, shu yo'ldan og'ishmay ilgarilayotgan ekan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan ta'lim va tarbiyada ham shunday yo'l tutilishi kerakligi tabiiy. "Hozirgi tez o'zgarayotgan globalashuv davrida o'zbek tili va adabiyotining o'ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifati tubdan oshirish...<sup>1,2</sup>, "o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" kabi vazifalar "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonda belgilab berildi<sup>3</sup>. Ana shu islohotlar silsilasida ta'lim bosqichlari orasidagi uzviylik va uzliksizlikni, ular orasidagi aloqa va bog'lanishlarni kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ayni shu vazifani amalga oshirishni ta'minlash ko'p jihatdan pedagogik amaliyotga ham bog'liqdir. Mazkur pedagogik amaliyot dasturi bevosita ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

**2. Talabalar malakaviy amaliyotining maqsad va vazifalari**

Pedagogik amaliyot davomida talabalar o'zbek tili va adabiyoti hamda boshqa fanlardan olgan bilim va ko'nikmalarini sinab ko'radilar, amalga tatbiq qiladilar. Malakaviy amaliyot umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda akademik litseylar bilan oliy ta'lim tizimini jips bog'laydigan bo'g'in hisoblanadi. Bu davrda talabalar o'qish davomida olgan nazariy bilimlarga, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida sinalgan tajribalarga tayanib mustaqil faoliyat olib boradilar; yuqori malakali metodist

1. Харақатлар стратегияси асосида мадда тармоқини янада яқинлаштириш чора-тадбирлари, 2017 й. 70-б.  
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида"ги ПФ-4797-сонли Фармони 2016 йил 13 май  
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини саноқли ташкили тизimini 2030 йилгача ривожлантириш конвенциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги Фармони Қонуни қўзғатилган маълумотлари миқдоби баъзи, 2019 й. 29.04. 06/19571/23034-сон)

o'qituvchilarning ish faoliyati bilan tanishadilar, ulardan o'rganadilar, turli ruhiyat egalari – o'quvchilar bilan hamkorlikda o'quv-tarbiya ishlarini olib boradilar.

Pedagogik amaliyot o'zining quyidagi maqsad va vazifalariga ega.

Pedagogik amaliyotning maqsadi – talabalarni ona tili va adabiyot fanlarini o'qitish jarayoni bilan amaliy jihatdan tanishtirish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, ona va adabiyot fanini o'quv predmeti sifatida qanday o'qitish kerakligiga oid kasbiy kompetentlikni shakllantirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, ona tilini o'qitish metodikasining nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik amaliyotning vazifasi – talabalarni o'z mutaxassisligi bo'yicha universitetda olgan nazariy bilimni amaliyot bilan bog'lash, nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlash, shuningdek, ularni ona tili va adabiyot ta'limi jarayoniga pedagogik, psixologik hamda metodik jihatdan tayyorlashdan iborat.

Pedagogik amaliyot davomida talaba quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

1. Yuqori malakali, ko'p yillik ish tajribasiga ega o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish. O'z mutaxassisligidan dars olib borish malakasini egallash.
2. O'quv yurti hayoti, uning o'quv-metodik yo'nalishi, o'quv-tarbiya jarayoni bilan tanishish, o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiya ishlarida faol qatnashish, mustaqil ish yuritish malakasini hosil qilish.
3. O'zbek tili va adabiyot fanlaridan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarni o'rganish va tashkil etishda qatnashish.
4. O'zlashtirishda orqada qolgan o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari individual ishlash usullarini o'rganish. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarishga hissa qo'shish.
5. O'quv yurtida o'z mutaxassislik fani yuzasidan olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari ustida fikr yuritish mavzu tanlash, material to'plash, ayrim sinov-tajriba ishlarini olib borish, tajribali uslubchi o'qituvchilar bilan suhbatlar o'tkazish.
6. Amaliyot davomida sinf rahbarlari ish uslubini o'rganish, o'quv muassasasi tarbiyaviy ish rejasiga mos tadbirlar tashkil etib, o'tkazishga rahbarlik qilish. O'quv yurti miqyosida o'tadigan tadbirlarda faol qatnashish.
7. O'zbek tili va adabiyotdan o'quv xonasini jihozlashga, ko'rgazmali qurollar, metodik qo'llanmalar bilan boyitishga yaqindan yordam berish.

### 3. Malakaviy amaliyot bo'yicha talabalar bilimi va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar

Ona tili va adabiyot ta'limi jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari, ona tili va adabiyotni o'qitishga doir yondashuv va tamoyillar, metodlar, ona tilidan dars turlari va unda qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar; ona tili va adabiyot fanlari bo'yicha baholash mezonlari haqidagi *tasavvurga (bilim)*:

– ona tili va adabiyot darslarini loyihalashtirish va tashkil etish, ona tili va adabiyot ta'limi mazmuni, bu fanlarni o'qitishda uning qismlari, boblariga xos xususiyatlarini tahlil qila olish, ta'lim jarayonida an'anaviy va no'an'anaviy dars shakllarini qo'llash, o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan dars usullarini *bilishi va ulardan foydalana olishi (ko'nikma)*;

– o'quv ishlarni loyihalashtirish; ona tili va adabiyot darslarini aniq va maqsadli tashkil eta olish; dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qila olish, o'z shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashtirish *ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim*.

### 4. Talabalarining malakaviy amaliyoti mazmuni

Talabalarining uzluksiz malakaviy amaliyoti pedagogika, psixologiya, falsafa, mantiq, tilshunoslikka kirish, hozirgi o'zbek adabiy tili, shevashunoslik, adabiyot tarixi, nutq madaniyati, til tarixi, tarix, geografiya, fizika fanlari bilan aloqadorligi mavjud. Malakaviy amaliyotning boshqa fanlar bilan aloqasi dars jarayonida o'quvchilar bilimini, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot o'qitishning faol metod va shakllari o'z ichiga muammolilik, ilmiy izlanish, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlardan, yangi pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish kabilarini oladi. Yuqorida qayd qilingan metod va usullar amaliyotda keng qo'llanadi.

Talabalar 1-2-3-kurslarda passiv, 4-kursda esa uzluksiz malakaviy amaliyotni o'taydilar. O'quv yurti: maktab va akademik litsey pedagogik jamoasi faoliyati bilan tanishadilar; ish rejaları tuzib, kundalik daftar yuritish, dars kuzatish, haftalik, choraklik o'quv rejalaridan foydalanish malakasini hosil qiladilar. O'quvchilar bilimini, og'zaki, yozma va mustaqil ishlarini baholash tajribasini o'rganadilar. Darsning reja-konseptini tayyorlab, uni tashkil etish va o'tkazishga oid mashq darslarini boshlaydilar. Metod birlashma ishi bilan tanishadilar, birlashma yig'ilishlarida ishtirok etadilar, sinfdan tashqari ishlarni olib borish tajribalarini o'rganadilar, tadbirlar tashkil etib o'tkazishda qatnashadilar.

**1-2-3- kurs talabalarining malakaviy amaliyot dasturi mazmuni**

T/r.	Bajariladigan ishlar mazmuni	Amalga oshiruvchilar
1.	Fakultetda talabalarining bir kunlik amaliyotiga bag'ishlangan seminar o'tkazish	Amaliyot boshlig'i, dekanat, amaliyot rahbarlari, talabalar
2.	Guruh talabari bilan metodistlar subbati. O'quv yurti bilan talabalarni tanishtirish	Amaliyot rahbarlari, fan o'qituvchilari, talabalar
3.	Maktab darsliklari, fan o'qituvchilarining yillik va choraklik o'quv rejaları bilan tanishish	Amaliyot rahbarlari, fan o'qituvchilari, talabalar
4.	Universitet hamda amaliyot olib boriladigan muassasa faoliyatiga tegishli ma'lumotlarni Universitet saytida yoritib borish	Amaliyot rahbari
5.	Amaliyot olib borilayotgan ta'lim muassasasida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish	Fan o'qituvchilari, talabalar
6.	Ona tili va adabiyot xonasining jihozlanishi bilan tanishish	Talabalar
7.	Ona tili va adabiyot o'qituvchisining ish rejasi bilan tanishib chiqish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
8.	Fan to'garaklari faoliyati bilan tanishish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar, talabalar
9.	Amaliyot olib boriladigan muassasada prof.-o'qituvchilarning seminar-treningini tashkil etish	Kafedra mudiri, amaliyot rahbari
10.	Turli fanlardan tajribali o'qituvchilarning darslarini kuzatish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
11.	Biriktirilgan guruh o'qituvchilari bilan hamkorlikda ishlash. Ish reja asosida tarbiyaviy soatlarni kuzatish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
12.	O'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib etishga qaratilgan davra subbatlarini tashkil etish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
13.	Sinf jurnallari bilan tanishish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
14.	Ota-onalar yig'ilishlarini kuzatish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
15.	Kundalik.com. bilan tanishish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar

16.	Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash jarayonini kuzatish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
17.	Ko'rgazmali qurollar tayyorlashni o'rganish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
18.	Dars mashg'ulotini loyihalashtirishni o'rganish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
19.	Darsda AKTdan foydalanish jarayonini o'rganish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
20.	Muassasadagi Yoshlar ittifoqi faoliyati bilan tanishib borish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
21.	Ta'lim muassasasi o'quvchilari o'rtasida insho, esselar tanlovini o'tkazish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
22.	Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayonini kuzatish va o'rganish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
23.	O'quvchilar uchun universitetda "Ochiq eshiklar kuni"ni tashkil etish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar
24.	Bajarilgan ishlar to'g'risida yillik hisobot yozib topshirish	Amaliyot rahbari, talabalar

**4- kurs talabalarining malakaviy amaliyot dasturi mazmuni**

T/r.	Bajariladigan ishlar mazmuni	Amalga oshiruvchilar
1.	Fakultetda talabalarining bir kunlik amaliyotiga bag'ishlangan seminar o'tkazish	Amaliyot boshlig'i, dekanat, amaliyot rahbarlari, talabalar
2.	Talabalar biriktirilgan maktab va ALlarda malakaviy amaliyotni boshlash oldidan umumiy maqsad va vazifalarni belgilash	Amaliyot rahbarlari, talabalar
3.	O'qituvchilarning pedagogik kengashlarida, metodik kengashlarida ishtirok etish	Fan o'qituvchilari, talabalar
4.	Universitet hamda amaliyot olib boriladigan muassasa faoliyatiga tegishli ma'lumotlarni Universitet saytida yoritib borish	Amaliyot rahbari
5.	Amaliyot olib borilayotgan ta'lim muassasasida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish	Fan o'qituvchilari, talabalar
6.	Ona tili va adabiyot xonasining jihozlanishi bilan tanishish	Talabalar
7.	Ona tili va adabiyot o'qituvchisining ish rejasi bilan tanishib chiqish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar

8.	Fan to'garaklari faoliyati bilan tanishish	Amaliyot rahbari, mas'ul o'qituvchilar, talabalar
9.	Amaliyot olib boriladigan muassasada prof.-o'qituvchilarning seminar-treningini tashkil etish	Kafedra mudiri, amaliyot rahbari
10.	Turli fanlardan tajribali o'qituvchilarning darslarini kuzatish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
11.	Biriktirilgan guruh o'qituvchilari bilan hamkorlikda ishlash. Ish reja asosida tarbiyaviy soatlarni kuzatish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
12.	O'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib etishga qaratilgan davra subhatlarini tashkil etish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
13.	Ona tili adabiyot fanlari metod kengashi bilan tanishish. o'qituvchilarning ish yuritish hujjatlari, sinf jurnalini yuritish bilan tanishish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
14.	Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasini bilan tanishtirish. Ota-onalar yig'ilishlarini kuzatish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
15.	Kundalik.com. bilan tanishish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
16.	Tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlash jarayonini kuzatish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
17.	Ko'rgazmali qurollar tayyorlashni o'rganish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
18.	Dars mashg'ulotini loyihalashtirishni o'rganish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
19.	Darsda AKTdan foydalanish jarayonini o'rganish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
20.	Muassasadagi Yoshlar ittifoqi faoliyati bilan tanishib borish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
21.	Ta'lim muassasasi o'quvchilari o'rtasida insho, esselar tanlovini o'tkazish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
22.	Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayonini kuzatish va o'rganish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
23.	Sinfdan tashqari ishlar bilan tanishish. Turli bayramlarga bag'ishlangan kechalar tashkil qilish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
24.	Talabalarning o'zbek tili va adabiyot fanlaridan mustaqil holda tashkil etgan darslarini kuzatish, tahlil qilish, baholash	Amaliyot rahbari, talabalar

25.	Ona tili va adabiyot fanlaridan ochiq darslarga tayyorlanish va o'tkazish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
26.	Muhim tarixiy va sanalarga bag'ishlab ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil qilish va o'tkazish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
27.	Ona tili va adabiyot fanidan summativ hamda formativ baholash jarayoni bilan tanishish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
28.	Malakaviy amaliyot davomidagi olgan taassurotlari haqida 250-300 ta so'zdan iborat argumentli yoki muhokama mazmunida esse yozish	Talabalar
29.	O'quv yurti jamoasi bilan birgalikda malakaviy amaliyot yakuniga bag'ishlangan anjuman o'tkazish	Talabalar, mas'ul o'qituvchilar
30.	Bajarilgan ishlar to'g'risida yillik hisobot yozib topshirish	Amaliyot rahbari, talabalar

#### 5. Pedagogik amaliyot topshiriqlari

#### 1-2-3- kurs talabalari amaliyot yakunida quyidagi hujjatlarni topshirishi lozim:

1. Talaba haqidagi ma'lumotnoma
2. DTS (Ona tili va adabiyot fanlari) va Milliy o'quv dasturi
4. Kundalik daftar (imzolangan va muhrlangan shaklda)
5. Dars tahlili dasturi (10-15 ta dars)
6. Joriy o'quv yili uchun taqvim-mavzu reja (biriktirilgan Ita sinfniki)
7. 1 ta ona tili va 1 ta adabiyot fanidan dars ishlama
8. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga oid hujjatlar (sinf rahbari hujjatlardan namuna, 1 ta tadbir ishlamasini, 1 ta tadbir bayonnomasi, maktabda tashkil etilgan to'garaklar haqida ma'lumot)
9. Amaliyot o'tagan ta'lim muassasasidagi ta'lim sifati bilan bog'liq muammolar hamda ularning yechimiga qaratilgan tavsiyalar ("Muammo-yechim" jadval shaklida taqdim etiladi.)
10. Hisobot.

#### 4- kurs talabalari malakaviy amaliyot yakunida quyidagi hujjatlarni topshirishi lozim:

1. Talaba haqidagi ma'lumotnoma
2. DTS (Ona tili va adabiyot fanlari) va Milliy o'quv dasturi
3. Amaliyot dasturi
4. Kundalik daftar (imzolangan va muhrlangan shaklda)
5. Dars tahlili dasturi (30-35 ta dars)
6. Joriy o'quv yili uchun taqvim-mavzu reja (biriktirilgan Ita sinfniki)

7. Ochiq dars hujjatlari (2 ta dars ishlanmasi, bayonnoma – muhrlangan holda, diska joylangan ochiq darsning videoyozuvi)

8. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga oid hujjatlar (sinf rahbari hujjatlardan namuna, 2 ta tadbir ishlanmasi, 2 ta tadbir bayonnomasi, maktabda tashkil etilgan to'garaklar haqida ma'lumot)

9. Tavsifnoma (talabaga tasdiqlangan holda maktab rahbariyati tomonidan beriladi)

10. Malakaviy amaliyot davomidagi olgan taassurotlari haqida 250–300 ta so'zdan iborat argumentli yoki muhokama mazmunida esse yozish

11. Hisobot (15 hafta davomidagi faoliyat yuzasidan amaliyot dasturiga muvofiq tayyorlanadi).

#### 6. Talabalarning amaliyot bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagilarga amal qilinadi:

A'lo (5) ball olish uchun talaba til va adabiyot ta'limida innovatsion pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, fan bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmuni, kompetensiyaga yo'naltirilgan ona tili va adabiyot fanlaridan o'quv dasturi, uzluksiz ta'limning ona tili va adabiyot fanlaridan darsliklarning tuzilishi va mazmuni hamda fan o'qituvchisi faoliyatida qo'llaniladigan hujjatlarga oid nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lishi, qo'yilgan masalaga ijodiy yondoshib, uning mohiyatini tushunib mustaqil ravishda mushohada yuritish, uni yechish usullarini puxta bilishi va uni amaliyotga qo'llay olishi, 10 banddan iborat amaliyotga tegishli belgilangan hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etishi, talablarni to'liq bajarishi, muassasa rahbari tomonidan ijobiy tavsifnoma olgan bo'lishi kerak.

Yaxshi (4) ball olish uchun talaba til va adabiyot ta'limida innovatsion pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, fan bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmuni, kompetensiyaga yo'naltirilgan ona tili va adabiyot fanlaridan o'quv dasturi, uzluksiz ta'limning ona tili va adabiyot fanlaridan darsliklarning tuzilishi va mazmuni hamda fan o'qituvchisi faoliyatida qo'llaniladigan hujjatlarga oid nazariy jihatdan bilimga ega bo'lishi, 10 banddan iborat amaliyotga tegishli belgilangan hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etishi, talablarni to'liq, lekin ayrim juz'iy kamchiliklar bilan bajarishi, muassasa rahbari tomonidan ijobiy tavsifnoma olgan bo'lishi kerak.

**Qoniqarli (3) ball** olish uchun talaba fan bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmuni, kompetensiyaga yo'naltirilgan ona tili va adabiyot fanlaridan o'quv dasturi, uzluksiz ta'limning ona tili va adabiyot fanlaridan darsliklarning tuzilishi va mazmuni hamda fan o'qituvchisi faoliyatida qo'llaniladigan hujjatlarga oid nazariy jihatdan chuqur bilimga ega bo'lishi, qo'yilgan

masalaga ijodiy yondoshib, uning mohiyatini tushunib mustaqil ravishda mushohada yuritish, uni yechish usullarini puxta bilishi va uni amaliyotga qo'llay olishi, 10 banddan iborat amaliyotga tegishli belgilangan hujjatlarni ayrim kamchiliklar bilan taqdim etishi, talablarni qisman bajarishi, muassasa rahbari tomonidan ijobiy tavsifnoma olgan bo'lishi kerak.

**Qoniqarsiz (2 ball) ball** talabaga O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi fani bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmagani, topshiriqlarni bajarmaganligi, muassasa rahbari tomonidan ijobiy tavsifnoma olinmagani uchun qo'yiladi.

#### 7. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

##### Asosiy adabiyotlar:

1. To'xtiyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
2. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012.
3. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T.: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.
4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 354 b.
5. To'xtiyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 167 b.
6. Qozoqbo'y Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016. – 462 b.
7. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 368 b.

##### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yungilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт таракқиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // Қуч адолатда, 2016 йил 8 декабрь, № 47.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида” ги ПФ-4797 сонли Фармони, 2016 йил 13 май.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to'g'risidagi qarori. – Xalq so'zi, 2017-yil, 21-aprel.
6. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil.
7. Ona tili fanidan Milliy o'quv dasturi loyihasi. – Toshkent, 2020-yil.
8. Adabiyot fanidan Milliy o'quv dasturi loyihasi. – Toshkent, 2020-yil.

9. Xolmanova Z., Yusupova T. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi tinglovchilari uchun o'quv qo'llanma). – T.: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi, 2019.
10. Mavlonova K. va b. Matn tuzilishiga oid qoidalar. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 86 b.
11. Ziyodova T. Hozirgi o'zbek adabiy tilini o'rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish. – T.: Xalq merosi, 2002.
12. Tolipov O' va b. O'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish. – T., 2004.
13. Suyunov H. Adabiyot darslarida savol-topshiriqlar ustida ishlash. – T., 2004.
14. Yo'ldoshev I., Mirzarahimova M. Ona tili va adabiyotdan noan'anaviy darslar. – T., 2006.
15. R.Niyozmetova, T.Yusupova., G.Eshchanova. Pedagogik amaliyot (O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi bo'yicha olib boriladigan malakaviy pedagogik amaliyot uchun mo'ljallangan metodik qo'llanma). – T., 2016.
16. Hasanova B. Pedagogik amaliyot jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish. (Metodik qo'llanma). – T., 2005.
17. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – T.: Muharrir, 2011.
18. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. – T.: Tamaddun, 2010.
19. Almatov T., va b. O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish (metodik qo'llanma). Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013.
20. Ahmedova H. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – T.: Tafakkur, 2012.
21. Qodirov V.A. Mumtoz adabiyot o'qitish muammolari va yechimlar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
22. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili va adabiyot fanidan amaldagi darsliklari.

#### **Elektron ta'lim resurslari**

1. <http://uza.uz/oz/documents/alisher-navoiy-nomidagi-toshkent-davlat-zbek-tili-va-adabiye-13-05-2016>
2. <http://navoiy-uni.uz/uz-1/content/ozbek-tili-va-adabiyoti-boyicha-malakali-mutaxassislar-tayyorlashning-yangicha-tamoyillari>
3. <http://ziyonet.uz/ru>
4. <https://www.uzedu.ru/tatil-pajitida-bilim-olis-ucun-aratilgan-resurslar>
5. [http://library.ziyonet.uz/uz/book/index?Book%5Blevel\\_id%5D=1&Book%5Btitle%5D=&Book%5Bdescription%5D=&Book%5Blanguage\\_id%5D=1&yt0=%D0%9D%D0%B0%D0%B9%D1%82%D0%B8](http://library.ziyonet.uz/uz/book/index?Book%5Blevel_id%5D=1&Book%5Btype_id%5D=&Book%5Bcategory_id%5D=18&Book%5Btitle%5D=&Book%5Bdescription%5D=&Book%5Blanguage_id%5D=1&yt0=%D0%9D%D0%B0%D0%B9%D1%82%D0%B8)
6. <https://tilvaadabiyot.uz/>